



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

YOSHLARNI TARBIYALASH VA KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Pardabayev Jasur Eshbekovich

Yangi asr universiteti, kafedra mudiri, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarni tarbiyalash va ularning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida yoshlarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasbga yo'naltirish masalalari yoritiladi. Maqolada kasbiy yo'naltirish tizimi, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov hamda kasbiy moslashuv jarayonlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi, motivatsiyasi, mustaqilligi va kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayonining psixologik omillari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, kasbiy tayyorgarlik, kasbga yo'naltirish, pedagogik yondashuv, psixologik omillar, motivatsiya, kasbiy maslahat, kasbiy moslashuv.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ И РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Пардабаев Жасур Эшбекович

Университет «Янги аср», заведующий кафедрой, доцент (PhD)

Аннотация

В статье анализируются педагогико-психологические основы воспитания молодёжи и развития их профессиональной подготовки. Освещаются вопросы профессиональной ориентации с учётом индивидуальных особенностей, интересов и способностей учащихся. Научно обосновываются система профориентации, профессиональное консультирование, профессиональный выбор и процесс профессиональной адаптации. Также рассматриваются психологические факторы социальной идентификации, мотивации, самостоятельности и профессионального самоопределения молодёжи. Подчёркивается значение компетентностного, личностно-ориентированного и системного подходов в развитии профессиональной подготовки в современном образовании.

Ключевые слова: воспитание молодёжи, профессиональная подготовка, профориентация, педагогический подход, психологические факторы, мотивация, профессиональное консультирование, профессиональная адаптация.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF YOUTH EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING DEVELOPMENT

Pardabayev Jasur Eshbekovich

Yangi Asr University, Head of Department, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of youth education and the development of their professional training. It highlights issues of career guidance considering the individual characteristics, interests, and abilities of learners. The system of career

guidance, professional counseling, career choice, and the process of professional adaptation are scientifically substantiated. The study also examines psychological factors of social identification, motivation, independence, and professional self-determination among youth. It emphasizes the importance of competency-based, learner-centered, and systemic approaches in developing professional training within modern education.

Keywords: youth education, professional training, career guidance, pedagogical approach, psychological factors, motivation, professional counseling, professional adaptation.

Yoshlarni tarbiyalash va kasbiy tayyorgarligini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bugungi kunda mehnat bozori talablariga mos keladigan, bilimli, malakali va ijtimoiy mas'uliyatga ega shaxslarni tayyorlash nafaqat maktab, balki maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va oliy ta'lim muassasalarining ham asosiy vazifasi hisoblanadi. Tez ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berayotgan zamonaviy jamiyatda shaxsdan mutlaqo yangi kasbiy fazilatlarini talab qiluvchi yangi kasblar paydo bo'lmoqda, kasbiy yo'naltirish va o'quvchilar kasb-hunar tayyorgarligi tizimi oldida yangi vazifalar turibdi. Kasbiy rivojlanish jarayoniga turli omillar ta'sir ko'rsatadi: ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, psixologik va psixofizik omillar. Buning natijasida o'quvchilarda kelajakdagi kasbiy faoliyatida o'zini namoyon etishiga hissa qo'shadigan shaxsiy fazilatlar, bilimlar va motivatsion munosabatlar rivojlanadi. Maktabdan tashqari ta'limda shakllantiriladigan o'quvchilarning kasb-hunar tayyorgarligi yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasbiy o'zini o'zi anglash bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, maktabda olgan bilim darajasi bilan kasb egallash o'rtasidagi tafovutlarni yo'qotishga qodirdir. Bu, albatta, kasbga moslashish davriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, har qanday tizim singari, o'quvchilar kasb-hunar tayyorgarligi tizimini ham bir-biri bilan o'zaro bog'langan tarkibiy qismlar — quyi tizimlar sifatida tizimli tahlilga asoslangan yondashuv yordamida o'rganish kerak.

Asosiy qism. Pedagogik va psixologik yondashuvlar yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni tarbiyalash va kasbiy tayyorgarlik jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni tarbiyalash va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning ilmiy asoslarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tarbiya — shaxsning ma'naviy, intellektual, axloqiy va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirish jarayoni bo'lib, individual va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtiradi. Tarbiyalash jarayonida asosiy e'tibor shaxsning qobiliyatlari, ijtimoiy ko'nikmalari, axloqiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirishga qaratiladi.

So'nggi vaqtlarda tizimli yondashuv pedagogika fanida tizimli g'oyalarni rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Shunday qilib, B. S. Gershunskiy "pedagogik tizim" atamasini ta'lim tizimi va pedagogik boshqaruv tizimi kabi pedagogik obyektlardan tashkil topgan tizim deb atashni taklif qiladi. S. M. Chistyakova kasb-hunar ta'limi, kasb biografiyasi, kasbiy maslahat, kasbiy tanlash, kasbga yo'naltirish tizimida kasbiy moslashuv masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, kasbiy rahbarlik — bu o'quvchilarni erkin va ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash tizimidir. M. M. Zaxarov va V. D. Simonenko kasb-hunarga yo'naltirishni quyidagi tarkibiy qismlardan tarkib topgan tizim sifatida ko'rib chiqadi: kasbiy ta'lim, kasbiy faollashtirish, professional psixodiagnostika, professional maslahat, professional tanlov va kasbiy moslashuv. A. D. Sazonov esa quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi: kasbiy ta'lim, kasbiy diagnostika, professional maslahat, professional tanlov va professional moslashuv. Shu bilan birga, kasbga yo'naltirish — bu ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik va tibbiy tadbirlar tizimi bo'lib, uning maqsadi yoshlarga kasbiy o'z taqdirini belgilashda yordam berishdir. E. M. Pavlyutenkov kasbga yo'naltirish tizimining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaydi: kasbiy ma'lumotlarning quyi tizimi (maqsadi o'quvchilarni asosiy kasblar bilan tanishtirish), kasbiy faollikning quyi tizimi (o'quvchilarni qiziqishlari, moyilligi, hayotiy va ish tajribasini to'plashga qodir bo'lgan faoliyatga rag'batlantirish) va kasbiy konsultatsiyaning quyi

tizimi. Ular kasbiy rahbarlikni shaxsning ongli kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida ko‘rib chiqadilar, uning maqsadi esa kasbiy faoliyatda shaxsning o‘zini to‘la-to‘kis amalga oshirishidir. Shunday qilib, umuman olganda, kasbga yo‘naltirish ishining tuzilishi to‘g‘risida yagona fikr yo‘q, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bundan tashqari, loyihaga yo‘naltirilgan tashkilot sifatida maktabdan tashqari ta‘lim tizimi global maqsadga ega — individual salohiyatni rivojlantirish va uni kasbiy ta‘limga tayyorlash. Tizimning shaxsiy maqsadlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Barkamol avlod o‘quvchilar maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash.
2. O‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini shakllantirish.
3. Maktab o‘quvchilarini kasbiy yo‘nalishga tayyorlash.
4. Kasb-hunar ta‘limi tizimida kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilish.

Maktabdan tashqari ta‘lim tizimining maqsadlari va ahamiyatligi ularni tizimli tahlil asosida ko‘rib chiqishga asos beradi. Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan zamonaviy ta‘lim berishda o‘quvchilar kasb-hunar tayyorgarligi tizimini bir qator quyi tizimlarni o‘z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Xususan, o‘quvchilar kasb-hunarga tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: kasbga yo‘naltirish tizimi va kasb-hunarga tayyorgarlik tizimi. Ushbu quyi tizimlar funksional jihatdan o‘zaro bog‘liq, o‘zaro ta‘sir qiladi va umumiy maqsad bilan birlashadi. O‘z navbatida, ushbu quyi tizimlarning har biri o‘zaro bog‘liq quyi tizimlardan iborat bo‘lgan o‘z tuzilishiga ega.

1. **Kasbiy yo‘naltirish tizimi** quyidagi quyi tizimlarni o‘z ichiga oladi:
 - o kasbiy ma‘lumotlar tizimi;
 - o kasbiy konsultatsiya tizimi;
 - o kasbiy tanlov tizimi.
2. **Ixtisoslashtirilgan o‘qitish tizimi.** Maktabdan tashqari ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning qobiliyatlari va moyilliklariga qarab amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, ularning bilim darajasi va kasbiy talablar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdir. Maktabdan tashqari ta‘lim tizimida quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:
 - o tashxisli;
 - o tashkiliy;
 - o ta‘limiy;
 - o nazorat.

Kasb-hunarga tayyorgarlikni amalga oshirishda quyidagi tamoyillar qo‘llaniladi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim;
- tabaqalashtirish tamoyili (o‘quvchilarni tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va qobiliyatlariga ko‘ra ajratish);
- kasb-hunarga tayyorlash tarkibidagi moslashuvchanlik tamoyili va boshqalar.

Asosiy, ixtisoslashgan va ixtisoslashtirilgan fanlarni to‘ldiruvchi vositalarni tanlash alohida o‘rin tutadi.

Zamonaviy kasb-hunarga tayyorgarlikni tashkil etishga tizimli yondashuv ixtisoslashtirilgan ta‘lim konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga va moyilligi, qobiliyati hamda qiziqishlarini hisobga olgan holda yoshlarning kasb-hunarga tayyorgarligini yaratishga imkon beradi, ularning hayoti va yo‘nalishini mustaqil ravishda belgilash, kelajak kasbini ongli ravishda tanlash va o‘zlashtirishga tayyorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda ijodiy-tadqiqotchilik faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, psixologik jihatdan muhim xususiyatlarni namoyon etadi. Zamonaviy texnologiyalar bizning kundalik hayotimizga shu qadar tez kirib kelmoqdaki, o‘quvchilarning kompyuter yoki boshqa elektron vositalar bilan shug‘ullanishi tabiiy holga aylanmoqda.

Kasbiy tayyorgarlik — shaxsning kelajakda ma‘lum bir kasbiy faoliyatni samarali

bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayonda pedagoglar va psixologlar o'quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda ularni yo'naltiradi.

Pedagogik prinsiplar yoshlarni tarbiyalash va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilganlik – har bir yoshning individual xususiyatlari va qobiliyatlari hisobga olinadi.
Faoliyatga yo'naltirilganlik – o'quvchilarning mustaqil faoliyati va ijodiy yondashuvi rag'batlantiriladi.
Samaradorlik va uzluksizlik – tarbiya va kasbiy tayyorgarlik jarayoni bosqichma-bosqich va izchil olib boriladi.
Ijtimoiy moslashuv – yoshlarni jamiyatning talablariga moslashuvchanlikka o'rgatish.

Yuqorida pedagogic jihatdan yoshlarni tarbiyalash va kasbiy tayyorgarligini ko'rib chiqdik. Psixologik asoslarda yoshlarning rivojlanishi intellektual, emotsional va ijtimoiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'smirlik davrida ijtimoiy identifikatsiya, mustaqillik, qaror qabul qilish va mehnatga tayyorlik kabi jarayonlar kuchayadi.

Yoshlarni tarbiyalash va kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayoni shaxsning psixologik rivojlanish xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, o'smirlik va ilk yoshlik davrida shaxsning ijtimoiy, kognitiv va motivatsion rivojlanishi faol kechadi. Mazkur davrda yoshlar o'z "men"ini anglash, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish hamda kelajak kasbini tanlashga oid muhim qarorlar qabul qilish bosqichiga kiradi.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, o'smirlik davrida ijtimoiy identifikatsiya, ya'ni shaxsning o'zini jamiyatning muayyan guruhiga mansub deb his etishi kuchayadi. Bu jarayonda yoshlar o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va qadriyatlari asosida kelajak faoliyat yo'nalishini aniqlashga harakat qiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga kasb tanlash, mehnat faoliyatini tushunish va shaxsiy imkoniyatlarini baholashga yordam beruvchi psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi.

Yoshlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda motivatsiya muhim psixologik omillardan biridir. Ichki motivatsiya mavjud bo'lgan taqdirda o'quvchi o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashadi, yangi bilimlarni egallashga intiladi va mustaqil ravishda muammolarni hal qilishga harakat qiladi. Shu sababli zamonaviy ta'lim jarayonida loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlar, amaliy mashg'ulotlar hamda real kasbiy vazifalarga yaqin topshiriqlarni qo'llash o'quvchilarning qiziqishi va faoliyat motivatsiyasini oshiradi.

Psixologik nuqtayi nazardan yoshlarning mustaqillik, qaror qabul qilish va mas'uliyat kabi sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllangan yoshlar kelajak kasbini tanlashda ongli ravishda yondashadi hamda mehnat bozoridagi talablarni hisobga olgan holda o'z rivojlanish strategiyasini belgilay oladi. Bu esa kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonida qobiliyat, qiziqish va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarur. Har bir o'quvchi o'ziga xos temperament, tafakkur uslubi va o'rganish tezligiga ega bo'lgani sababli ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo'llash muhimdir. Bunday yondashuv yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi hamda kasbiy o'zini anglash jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa. Yoshlarni tarbiyalash va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida psixologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi, motivatsiyasi, mustaqilligi hamda individual psixologik xususiyatlarini

rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat yoshlarning kelajak kasbiy faoliyatiga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nishonaliyev U. Pedagogika asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010. — 256 b.
2. Gershunskiy B. S. XXI asr uchun ta’lim falsafasi. — Moskva: Pedagogika, 2002.
3. Chistyakova S. M. O‘quvchilarning kasbiy yo‘naltirilishi. — Moskva: Prosveshcheniye, 2005.
4. Zaxarov M. M., Simonenko V. D. Yoshlarning kasbiy yo‘naltirilishi. — Moskva: Pedagogika, 2003.
5. Sazonov A. D. O‘quvchilarning kasbiy o‘zini aniqlashi. — Moskva: Akademiya, 2004.
6. Pavlyutenkov E. M. O‘quvchilarning kasbiy yo‘naltirish tizimlari. — Moskva: Prosveshcheniye, 2001.